

Boshlang'ich Sinflarda "Najmiddin Kubro" Rivoyatini O'rgatish Jarayonida Tarixiy Ma'lumotlardan Foydalanish

Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna

Ma'mun universiteti O'zbek va sharq tillari kafedrası v.b. dotsenti.

Annotatsiya. Maqolada IV sinf "O'qish kitobi"da berilgan "Najmiddin Kubro" rivoyatini tarixiy ma'lumotlarga qiyoslagan holda o'rgatish usullari bayon etiladi. Shu jarayonda rivoyat tarkibidagi qiyin so'zlar va obrazli ifodalarni o'rgatish masalalariga ham e'tibor qatriladi.

Kalit so'zlar: "Najmiddin Kubro", rivoyat, tarix, qiyosiy o'rganish, obrazli ifodalar, "O'qish kitobi".

Резюме. В статье говорится о методах изучения предание «Наджмиддин Кубра» приведенного в книге для чтения в 4 классе, на основе сопоставления с историческими сведениями. На этом протсессе обращаются внимания на изучение образных выражений и словарь трудных слов встречающегося в структуре данного предание.

Ключевые слова: «Наджмиддин Кубро», предание, история, сопоставительные изучения, «Книга для чтения».

Resume. The given article is devoted to producing the methods of teaching the folktale "Najmiddin Kubro" given in the 4 th form reading textbook in comparison with historic facts. In this process the attention is paid to the teaching of the graphic phrases and the glossary of difficult words in the folktale.

Key words: "Najmiddin Kubro", folktale, history, comparative study, graghic phrases, the textbook of reading.

Boshlang'ich ta'limning yuqori sinflarida ajdodlarimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxslar –Najmiddin Kubro, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy kabi allomalar haqida to'qilgan rivoyatlarni o'rganish rejalashtirilgan.


Bular orasida "Najmiddin Kubro" rivoyati vatanparvarlik g'oyalarini yoshlarga targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kitobdagi matnni avvalo o'qituvchi dona-dona qilib, o'qib berishi va keyinchalik, asar g'oyasining hozirda ham buyuk tarbiyaviy ahamiyat kasb etishini tushuntirib berish kerak. Bu borada hurmatli Yurtboshimizning quyidagi so'zlari alohida ahamiyatga ega: "Bugun milliy – ozodlik uchun kurashimiz, tarixidan so'z ketar ekan, birinchilar qatorida buyuk Xorazm o'g'lonlaridan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi Milliy qahramonlarimizning nomlarini zikr etamiz"¹. Mamlakatimiz rahbarining ushbu ehtiromi asar g'oyasini to'la-to'kis ifodalab bera oladi.

O'quvchilar rivoyatning bosh qahramoni bo'lmish-Najmiddin Kubroning kim ekanligiga albatta qiziqib qaraydilar. Buning uchun o'qituvchi ushbu buyuk shaxsning kim ekanligi, o'sha davrdagi tarixiy sharoitni yaxshi tasavvur qilib olishi zarur.

Najmiddin Kubroning (1145-1221) asl ismi Ahmad ibn Umar Abu-l-jannob Najmiddin Kubro al-Xorazmiydir. Najmiddin-dinning yulduzi; Kubro-buyuk, ulug' kabi ma'nolarni anglatadi. Bu nom unga buyuk shayx sifatida tanilgandan keyin hurmat-ehtirom ramzi sifatida berilgan. "Jannob" so'zi dunyodan uzoqlashish, parhez saqlash degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'z uning so'fiylik ta'limotiga nisbatan ishlatilgan. Rivoyatda tilga olingan voqealar haqiqatan ham bo'lib o'tgan tarixiy voqeadir.

¹ Каримов И.А. "Халқ сўзи" газетаси, 1997 йил 21 октябр.



Chingizxon bilan buyuk shayx o'rtasida bo'lib o'tgan voqealarni Jaloliddin Rumi o'zining "Masnaviye ma'naviy" asarida yozganligi haqida aniq ma'lumotlar bor"².

Bu voqea 1221 yilda bo'lib o'tgan. Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin, u kishining jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edi"³.

Buyuk shayxni o'zi barpo qilgan xonoqohga dafn etadilar. Qabr hozirda ham Ko'hna Urganchda saqlangan. Yuz yillar o'tgach, Najmiddin Kubro qabri ustiga Qutlug' Temur (1321-1350-yillarda Xorazmni boshqargan) katta xonaqoh qurdirgan.

Chingiz istilochilarining Xorazmga bostirib kirishi xalq boshiga so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan darajadagi behad kulfatlarni keltiradi.

XIII asrdayoq ikki million aholi yashaydigan, gullab-yashnab turgan Urganch vayronaga aylantirildi. Tarixchi Ziyovunovning "Xorazmshohlar-anushteginiylar davlati (1097-1231)" nomli asarida yozishicha, Urganch taslim bo'lgandan keyin bosqinchilar oldiga maxsus kishilar borib, shahar va uning aholisiga shafqat qilishni iltimos etadilar. Biroq istilochilar buni qat'iy rad qilishadi.

Shahardan barcha aholini tashqariga olib chiqishadi. Ular orasidan hunarmandlarni ajratib olishadi. (Ular taxminan 100 ming kishi edi) Ular Mo'g'ilistonga haydaldi. Qolgan barcha aholi o'limga mahkum etildi.

O'ldirilgan kishilar 50 ming kishilik mo'g'ul askarlarining har biriga 24 kishidan to'g'ri keladi⁴.

Agar ushbu tarixiy voqealarga razm solinsa, bo'lib o'tgan voqealar rivoyatdagi tasvirga qaraganda juda dahshatlidir.

O'qituvchi ushbu tarixiy voqealarni bolalarga qisqacha va ta'sirchan ruhda hikoya qilib berishi zarur. O'z navbatida hozirgi osoyishta kunlarimizning qadriga yetishni ularning ongiga yetkazish-muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Rivoyatdagi mazmun bilan tarix haqiqati to'raligicha mos kelmaydi. Buni ham o'quvchilarga oydinlashtirib o'tish lozim. Rivoyat-badiiy asar, unda xayoliy to'qimalar bo'ladi. Qolaversa xalq ijodiyotidagi yuzaga keladigan asarlarning aksariyatining nihoyasi yaxshilik bilan tugaydi. Mazkur rivoyatda ham o'sha xususiyat ko'rinib turibdi.


O'qituvchi yana bir narsaga ahamiyat berishi lozim. IV sinf o'quvchilarining dunyoqarashi ancha kengayib, adabiyot sohasida ancha-muncha narsalarga qiziqib boshlaydilar. Ular 4 yil davomida ertaklarni ko'p o'qishadi. IV sinfga kelib, afsona, rivoyat degan nomlar uchrab boshlaydi. Ammo o'quvchilar bu uchala janrning farqini anglay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan ular o'qituvchidan bu janrlarning o'zaro farqlarini so'rab qolishlari mumkin. Shu sababli o'qituvchi bu muammoni bilishi kerak. Albatta IV sinf o'quvchilariga janrlar genezisini ilmiy nuqtai nazardan sharhlash shart emas. Uni sodda qilib tushuntirish lozim. Masalan, afsona -afsun so'zidan olingan bo'lib, sehr-jodu degan ma'noga ega. Bu janrda uydurma, fantastika yuqori darajada bo'ladi. Ertaklarda esa fantastika bo'lgani holda hayotiy lavhalar, inson obrazlari ham ko'p uchraydi. Rivoyat esa roviy so'zidan olingan bo'lib, o'tmishdan hikoya qilmoq tushunchasiga ega. Unda ham fantastika ishlatiladi. Ammo bu janrda albatta taniqli bir tarixiy shaxs ishtirok qiladi. Buni Najmiddin Kubro siymosida yoritib berish mumkin.

Tahlil qilinayotgan rivoyat syujetining tarixiy asoslarini sharhlab bergandan keyin muallim bu asarning badiiyati xususida, ayniqsa obrazli ifodalari haqida chuqur tahlilga o'tishi

² Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийе маънавий. Муқаддима. –Кобул, 1982. –Б.8. (форс тилида)

³ Қодиров М. Нажмиддин Кубро ва унинг "Одобул зокирин" (Зикр айтувчилар одоби) рисоласи ҳақида. // Шайх Нажмиддин Кубро. Шарҳи риволаси одобул зокирин. –Урганч, "Хоразм", 1997. –Б.9.

⁴ Буниятов З.М. Государство Хорезм шахов-ануштегинидов (1097-1231) –М.: "Наука", 1986. –Б.253.



kerak. Rivoyatdagi matnda ayrim tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar bor. Shu sababli albatta lug'at tuzish zarur:

Halim-yumshoq, xushmuomala.

So'lim-go'zal, chiroyli.

Shayx-diniy rahbar, olim.

Onhazrat-janob, diniy arboblarga murojaat jarayonida ishlatiladigan so'z.

Murid-shogird, ixlosmand.

Harchand-qanchalik.

Rivoyat matnida obrazli ifodalar, xalq maqollari, poetizm bilan aloqador so'zlar ham borki, ularni muallim muayyan bir tizimga solib o'quvchilarga taqdim qilishi kerak.

Obrazli ifoda	Turi	Vazifasi
G'alabai munavvar (nurli zafar)	Izofa	G'alabaniing buyukligini ifodalash uchun.
Kamoli ehtirom (Yuksak hurmat)	Izofa	Hurmat, e'zozni ifodalash uchun
Yeng shimarib (havas, ishtiyoq)	Frazeologik ibora.	Sidqi dildan vazifani bajarish ma'nosida qo'llangan.
Bir boshga bir o'lim bor.	Maqol	Jasurlik, mag'rurlik ohangini berish uchun.
Qonga qon-jonga jon!	Frazeologik ibora.	Qasoskorlik hujumini ifodalash uchun
Quyosh boshini ko'tarmay turib (Erta tongda)	Frazeologik ibora.	Erta saharlab hujumga o'tilganini anglatish uchun
Bayroqning egilgani- raqib yengilgani.	Maqol	Ramziylikning ifodasi
Ahli Xorazm (barcha Xorazm xalqi)	Izofa	Yakdillikni ko'rsatish uchun.
Yolg'ondan cho'p qadasangiz, chindan daraxt bo'lib o'sarkan.	Mubolag'a	Yerning saxiyiligini ifodalash uchun

O'quvchilar matn tarkibidagi obrazli ifodalarni mustaqil topishga harakat qilsalar, ularda ijodiy fikrlash, badiiy adabiyotning jozibali ta'sirini idrok qilish qobiliyati rivojlanib boradi.

Dars yakunida o'quvchilarga Najmiddin Kubroning yov taklifiga bergan dadil javoblarini ko'chirtirib yozdirish kerak. Shu jarayonda Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi ayovsiz janglar olib borgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Maliklar haqida ham qisqacha ma'lumotlar berib o'tish joizdir.

Najmiddin Kubro shaxsi bilan bog'liq tarbiyaviy ishlarni sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda ham amalga oshirish mumkin.

Xivaning Sayot qishlog'ida Bibihojar ona qabri joylashgan. Bu ayol buyuk shayxning onasidir. O'ng'ayi bilan o'quvchilarni o'sha joyga sayohatga olib chiqilsa, u yerdagi ilmiy xodimlar bu insonlar haqida yanada yangi axborotlarni o'quvchilarga hikoya qilib berishadi.

